

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/10.12.2019.T.03.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

KAVKATBEKOV MURODJON MAMITBEKOVICH

**KULLIK DARAJASI YUQORI BO‘LGAN ANGREN QO‘NG‘IR KO‘MIRI
UCHUN GAZIFIKATSIYALASH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH VA
TADQIQ ETISH**

05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kavkatbekov Murodjon Mamitbekovich

Kullik darajasi yuqori bo‘lgan Angren qo‘ng‘ir ko‘miri uchun
gazifikatsiyalash qurilmasini ishlab chiqish va tadqiq etish..... 5

Кавкатбеков Муроджон Мамитбекович

Разработка и исследование установки газификации для высокозольного
Ангренского бурого угля..... 21

Kavkatbekov Murodjon Mamitbekovich

Development and research of a gasification plant for high-ash Angren brown
coal..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/10.12.2019.T.03.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

KAVKATBEKOV MURODJON MAMITBEKOVICH

**KULLIK DARAJASI YUQORI BO‘LGAN ANGREN QO‘NG‘IR KO‘MIRI
UCHUN GAZIFIKATSIYALASH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH VA
TADQIQ ETISH**

05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T3160 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdtu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Babaxodjayev Raximjan Pachexanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Uzakov Gulom Norboyevich
texnika fanlari doktori, professor

Shaislamov Alisher Shabduraxmanovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

"Issiqlikelektrloyiha" AJ

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil " 5 " 04 soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32, e-mail: istu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil " 12 " 03 kuni tarqatildi.
(2025 yil " 11 " 03 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



K.R. Allayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor, akademik

I.U. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

A.M. Mirzabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiiy gaz va neft kabi an'anaviy energiya manbalarining kamayishi, qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalash texnologiyalarini ishlab chiqish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Dunyoda o'zlashtirilgan ko'mir zaxiralari 200-250 yilga yetishi mumkin¹. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda elektr energiyasining deyarli 40 foizi ko'mir yoqilg'isida ishlaydigan elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Bu borada, jumladan qattiq yoqilg'ini yoqishning an'anaviy usullariga nisbatan ko'mirni gazifikatsiyalash asosida ko'mirni ekologik toza qayta ishlash samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda energiya sig'imdorligi yuqori bo'lgan uzluksiz ishlab chiqarish xarakteridagi konchilik, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati korxonalarini issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun ekologik zararsiz yoqilg'i manbalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, issiqlik elektr stansiyalarda qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalash orqali hosil bo'lgan gazlardan foydalanish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalashda yoqilg'ilarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tahlil qilish, baholash, gazifikatsiyalash jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash asosida ilmiy asoslangan ko'mirni gazifikatsiyalash vaqti, gazifikatsiyalash qurilmasining konstruktiv o'lchamlari, gazifikatsiya jarayoni harorati hamda hosil bo'ladigan gazning kimyoviy tarkibini aniqlash imkonini beruvchi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida energiya sig'imdorligini 2030-yilga qadar bir yarim barobarga kamaytirish maqsadida yangi texnologik yechimlarni yaratish va takomillashtirish hamda joriy etishga doir keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, shuningdek, "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 % oshirish va atmosferaga zararli gazlar tashlamalarini 20 % kamaytirish"² vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, sanoat korxonalarida elektr energiyasi va issiqlik ishlab chiqarishning energiya sarfini kamaytirish yo'nalishida energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish, yoqilg'i resurslari sifatini oshirish usullarini modellashtirish, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda shartli yoqilg'i sarfini kamaytirish, klassik va zamonaviy usullar asosida qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalash uslubiyatini ishlab chiqish masalalarini yechishga qaratilgan ilmiy- tadqiqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ А. И. Гайворонский, В. А. Марков, Ю. В. Илатовский. - М.: ИПЦ Газпром, 2007. - 478 с.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son 28.01.2022-yildagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 13-iyundagi PQ-3054-son "2017-2021-yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 10-apreldagi PQ-185-son "Ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta'minoti tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi PQ-118-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Technical University Drezden (Germaniya), Czech Technical University in Prague (Chexiya), Sonitpur polytechnic (Hindiston), Nanyang Technological University (Singapur), University of Nevada-Las Vegas (AQSH), Harbin Engineering University (Xitoy), Technical University Toyohashi, Technical University Nagoya (Yaponiya), "MEI" Milliy tadqiqot universiteti, (Rossiya), Ural Federal texnika universiteti (Rossiya), Perm ko'mir ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya), Kuzbas davlat texnika universiteti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasining Uglerod fizikasi instituti (Rossiya), Donetsk davlat ko'mir ilmiy-tadqiqot instituti (Ukraina), Ukraina ko'mir kimyosi ilmiy-tadqiqot instituti (Ukraina) va Toshkent davlat texnika universiteti (O'zbekiston) olimlari tomonidan qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalash yo'nalishida keng ko'lamlil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Qattiq yoqilg'ilarni yonish va gazifikatsiyalash jarayonini o'rganish, yonish va gazifikatsiyalash jarayonini jadallashtirish, texnologiya samaradorligini oshirish va qurilmalar konstruksiyasining ixchamligini oshirish, hisoblash uslubiyoti va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan, B.V. Kantorovich, V.V. Pomeransev, V.S. Altshuler, G.I. Deshalit, G.N. Delyagin, N.E. Rambush, G-D. Shilling, B. Bonn, U. Kraus, V.A. Muns, Ch. Higman, M. van der Burgt, P.R. Solomon, D.G. Hamblen, J. Feroso, B. Arias, M.G. Plaza, Peng Liang, Zhifen Vang, Zhichen Bi, J. Dolu, L. Kuddusi va boshqalar.

Polidispers materiallarga muallaq qatlamda issiqlik bilan ishlov berish, shuningdek, qattiq yoqilg'ilarning yonishi va gazifikatsiyalash jarayonlarini o'rganish, qozonxona qurilmalarining samaradorligini oshirish kabi ilmiy muammolarni hal qilishga O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: R.B. Axmedov, N.R. Yusupbekov, Z.S. Tolibjonov, D.N. Muxiddinov, R.P. Babaxodjayev, N.T. Tashbayev va boshqalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqish samaradorligini oshirish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, kullik darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir ko'mirini gazifikatsiyalash sohasidagi texnologiyalarni rivojlantirish, gazifikatsiyalash jarayonini boshqarish uslubiyatini yaratish bilan bog'liq ilmiy muammolar yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur dissertatsiya ishida kullik darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir ko'mirini gazifikatsiyalash sohasidagi texnologiyalarni rivojlantirish, gazifikatsiyalash jarayonini boshqarish uslubiyatini yaratishda texnologik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, qattiq yoqilg'ilarni gazifikatsiyalashda yoqilg'ilarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tahlil qilish, baholash, gazifikatsiyalash jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlandi. Buning asosida ilmiy asoslangan ko'mirni gazifikatsiyalash vaqti, gazifikatsiyalash qurilmasining konstruktiv o'lchamlari, gazifikatsiya jarayoni harorati hamda hosil bo'ladigan gazning kimyoviy tarkibini aniqlash imkonini beruvchi dasturiy mahsulot yaratish hamda energiya harajatlarini kamaytirish usullari taklif etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "OT-A3-58 "Issiqlik ishlab chiqarishning texnologik sxemasida tutun gazidan maksimal darajada foydalanish orqali issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish" (2017-2018 y.y.), № OT-Atex- 2018-437 "O'rta va uzoq muddatli istiqbolda respublika energetika sektorining yoqilg'i balansini diversifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy-texnik yechimlar majmuasini ishlab chiqish" (2018-2020 y.y.) mavzularidagi loyihalar doirasida hamda "Sanoat issiqlik energetikas" kafedrasining "Sanoat korxonalarida issiqlik energiyasi va yoqilg'idan foydalanishda samaradorlikni oshirish" mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi kullik darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir ko'mirini qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasini takomillashtirish va tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

kullik darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir ko'mirining mexanik, fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish;

past navli va kullik darajasi yuqori bo'lgan ko'mirlarni gazifikatsiyalash texnologiyalarini tahlil qilish va o'rganish;

ko'mirni gazifikatsiyalash jarayonining fizik va matematik modelini tuzish va sonli tajribalar o'tkazish;

qurilmani takomillashtirish va ish rejimlarini tadqiq qilish, to'g'ridan to'g'ri qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasining ratsional energiya samarador parametrlarini aniqlash, nazariy ma'lumotlarni eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslash;

kullik darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir ko'miri misolida texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va gazifikatsiyalash qurilmasini joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ko'mir yoqilg'isida ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari olingan.

Tadqiqot predmeti kullik darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir

ko‘mirini zich qatlamda gazifikatsiyalash jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qattiq yoqilg‘ilarni gazifikatsiyalash jarayonlarining moddiy balansini tavsiflash uchun ma‘lum bo‘lgan modellarga, qatlamli yonish haqidagi nazariy tushunchalarga va shunga o‘xshash tizimlarga qo‘llaniladigan eksperimental zamonaviy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining kullik va namlik darajasining yuqoriligini hisobga olgan holda past navli ko‘mirni gazifikatsiyalash jarayonlarini tahlil qilish asosida qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasi takomillashtirilgan;

qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasiga beriladigan ko‘mirning boshlang‘ich diamerti, qatlamlarning harorati omillarining o‘zgarishini inobatga olgan holda gazifikatsiya vaqti, gazifikatsiyalash qurilmasining balandligi, gazifikatsiya jarayoni harorati hamda hosil bo‘ladigan gazning kimyoviy tarkibini aniqlash imkonini beruvchi matematik model takomillashtirilgan;

qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasining yonish zonasida havoni teng taqsimlanishini hisobga olgan holda generator gazi yonish issiqligining kul miqdori darajasi va namlikga bog‘liqligini aniqlash asosida gazifikatsiya jarayonining statsionar holatini ifodalovchi havoning ortiqchalik koeffitsiyentining ratsional qiymatlari $\alpha = 0,5-0,7$ ga, yonish zonasi balandligining qayta tiklanish zonasi balandligiga nisbati 0,5 ga, ko‘mir zarrachalarining o‘lchamlari 10-20 mmga tengligi aniqlangan;

qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasida ko‘mirining namlik, kul hamda ko‘mir zarralarining o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda gazifikatsiyalash jarayonlarning bir vaqtda sodir bo‘lishi asosida generator gazining yonish issiqligini oshirish usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini gazifikatsiyalash jarayonini tadqiq qilish uchun eksperimental qurilma ishlab chiqilgan;

qatlamli gazogeneratorida generator gazining issiqlik hosil qilish qobiliyatini aniqlash, kuzatish va hisoblash imkonini beruvchi dasturiy mahsulot yaratilgan;

ko‘mirni gazifikatsiyalash jarayonida gazogenerator qurilmasiga havo uzatishning ratsional qiymatlari aniqlandi va uni hisoblash uchun dasturiy mahsulot yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi termodinamikaning asosiy qonunlari, issiqlik va massa almashinuvi nazariyasining klassik usullari, matematik va fizik qonunlari bo‘yicha bajarilgan uslubiy jihatdan asoslangan nazariy termodinamik hisob-kitoblarning amalga oshirilganligi, shuningdek, MATLAB dasturiy modulida olingan natijalarning bir-biriga mos kelishi va nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining bir-biriga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini gazifikatsiyalash qurilmasini ishlab chiqish va yaratish hamda kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘miridan foydalanish samaradorligini

o'shishga hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qatlamli gazogeneratorning pastki qismiga o'rnatiladigan konstruktiv jihatdan takomillashtirilgan kolosnikli panjara, ratsional geometrik parametrlar va empirik tenglamalardan iborat bo'lib, bunday qurilmalarni loyihalash va yaratish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kullik darajasi yuqori bo'lgan Angren qo'ng'ir ko'miri uchun takomillashtirilgan gazifikatsiyalash qurilmasini va gazifikatsiya jarayonining matematik modelini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasi "Angren IES" AJ da joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJ ning 2024 yil 26 dekabrda 02-06/2149 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasi yordamida qo'ng'ir ko'mirdan generator gazini olish va shu orqali atrof-muhitga chiqadigan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish, qozon qurilmasini ishlash davrini uzaytirish imkoniyati yaratilgan;

gazifikatsiya jarayonining statsionar holatini ifodalovchi havoning ortiqchalik koeffitsiyentining ratsional qiymatlari, yonish hududi balandligining qayta tiklanish zonasi balandligiga nisbati, ko'mir zarrachalarining o'lchamlari "Angren IES" AJning TII-230-2 turidagi qozon qurilmasida joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJ ning 2024 yil 26 dekabrda 02-06/2149 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Angren IES" AJ ga "Yerostigaz" AJ tomonidan yetkazib beriladigan gazning yonish issiqligiga nisbatan 8 % ga yuqori bo'lgan generator gazini olish hamda olinadigan issiqlik energiyasining tan narxi 8 % gacha kamaytirish imkoniyati yaratilgan;

generator gazining yonish issiqligini oshirish usuli "Angren IES" AJ da joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJ ning 2024 yil 26 dekabrda 02-06/2149 sonli ma'lumotnomalari). Natijada, kul miqdori darajasi yuqori bo'lgan polidispers Angren qo'ng'ir ko'mirini 800 t/yil miqdorida gazifikatsiyalash natijasida yillik iqtisodiy samara 151 272 000 so'mni tashkil etib, atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli moddalar (uchuvchan kul, azot oksidi, karbonat angidrid, oltingugurt angidrid) miqdorini 33 t/yilga kamaytirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 1 ta chet el ilmiy jurnallarida hamda 1 ta Scopus bazasiga kiruvchi to'plamlarda nashr etilgan, 2 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi jami 104 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti keltirilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprotatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek, dissertatsiya tarkibi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ko'mirni qayta ishlashning texnologik jarayonlari**" deb nomlangan birinchi bobida o'rganilayotgan mavzuning zamonaviy holatini tahlil qilish asosida tadqiqot muammosi shakllantirilgan. Ushbu bobda past navli ko'mirlarni qayta ishlashning asosiy usullari, ko'mirlarni gazifikatsiyalashning zamonaviy texnologiyalari masalalari, gazogenerator qurilmalarining konstruksiyalari va ularning xususiyatlari, ko'mirni qatlamli gazifikatsiyalash jarayonining samaradorligini oshirish usullari va hisoblash masalalari, qatlamli gazogeneratorlarda qattiq yoqilg'ining mexanik kam yonishini kamaytirish usullari ko'rib chiqilgan. Ma'lum ilmiy ishlar va axborot manbalarining tahlili qatlamli gazogeneratorlarda past navli ko'mirlarni gazifikatsiyalash jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlarning cheklanganligini ko'rsatdi. Gazogenerator kesimi bo'yicha gazlashtiruvchi agentning notekis taqsimlanishi gazifikatsiyalash jarayonini barqaror olib borishga to'sqinlik qiladi. Olimlar tomonidan past navli ko'mirlarni qatlamli gazifikatsiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda, shu yoqilg'ini to'g'ridan-to'g'ri yoqishga nisbatan zararli atmosfera tashlamalari hosil bo'lishini kamaytirish maqsadida. Qo'yilgan muammoning zamonaviy holatini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelindi: past navli ko'mirlarni to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qatlamli gazogeneratorlarda gazifikatsiyalash jarayonini olib borishda sarf bo'yicha ratsional qiymatlarni aniqlash, shuningdek, gazlashtiruvchi agentning bir tekis taqsimlanishini tashkil etish, ishlatiladigan qattiq yoqilg'i sifati bo'yicha maqbul qiymatlarni topish orqali issiqlik-massa almashinuv, kimyoviy jarayonlarni jadallashtirish va ko'mirni qayta ishlash samaradorligini oshirish mumkin qurilmaning energiya samaradorligi.


Dissertatsiyaning "**Qatlamli gazifikatsiyalash jarayonining matematik tavsifi**" deb nomlangan ikkinchi bobida gazifikatsiyalash jarayonining fizik, matematik modellari keltirilgan. Ko'mirni gazifikatsiya jarayonini tadqiq qilishga mo'ljallangan gazogenerator qurilmasining fizik modeli ko'rib chiqilgan (1-rasm).

Ko'mir gazlovchi agentga (havoga) va jarayonda hosil bo'lgan gaz aralashmasiga qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanadi. Gazifikatsiya jarayoni to'rtta ish zonasida amalga oshiriladi: quritish, piroliz, tiklanish va yonish zonasi.

Quritish zonasi. Ko'mir quritish zonasiga tushadi, u yerda generator gazidan olingan issiqlik hisobiga ko'mirning sirdagi namligi chiqib ketadi. Bu zonada harorat 150-300 °C ni tashkil etadi.


Piroliz zonasi. Quritish zonasidan so'ng ko'mir piroliz zonasiga o'tadi, bu yerda uglerod va vodorodning kislorodsiz kimyoviy o'zaro ta'siri sodir bo'ladi. Piroliz zonasida ko'pincha tiklanish va yonish zonalarida hosil bo'lgan issiqlikdan

foydalanish hisobiga metan hosil bo'lishi kuzatiladi. Piroliz zonasidagi harorat 300 dan 500 °C gacha yetadi.




1-rasm. Qatlamli gazogeneratorning fizik modeli

Tiklanish zonasi. Tiklanish zonasida yonish zonasidan o'tgan kislorod hisobiga uglerodning to'liq yonmasligi sodir bo'ladi. Havoning ortiqchalik koeffitsiyenti $\alpha < 1$. Bu yerda uglerod, karbonat anhidrid, shuningdek, suv bug'larining kimyoviy o'zaro ta'siri kuzatiladi. Tiklanish zonasi shu bilan xarakterlanadiki, ma'lum termik sharoitlar hisobiga bu yerda generator gazining CO , H_2 va CH_4 kabi asosiy yonuvchi komponentlari hosil bo'ladi.



Tiklanish zonasida qatlamning harorati yonish zonasining issiqlikni yutishi va nurlanishi hisobiga pasayadi. (4) va (5) reaksiyalar bo'yicha metanni sezilarli tezlikda faqat gazogeneratorda yuqori bosimlarda (2-4 MPa) hosil qilish mumkin.

Yonish zonasi. Yonish zonasining asosiy vazifasi gazifikatsiyalash jarayonini samarali olib borish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdorini ta'minlashdan iborat. Qattiq yoqilg'i gazlashtiruvchi agent ta'sirida oksidlanadi. Pastdan yonish zonasiga havo kolosnikli panjara orqali beriladi. Kolosnikli panjara havo oqimining bir tekis taqsimlanishiga yordam beradi. Kul kolosnik panjaraning teshiklari orqali chiqarib yuboriladi. Koks qoldig'ining yonish jarayoni quyidagi reaksiyalar bilan kechadi:



(6) va (7) reaksiyalar uglerod qoldig'i yonganda uglerod oksidi hosil bo'lishi bilan boradi. Vodorod yonilg'isining oksidlanishi (8) va (9) reaksiyalarga muvofiq geterogen va gomogen jarayonlardan o'tadi. (6) - (10) reaksiyalar ekzotermik bo'lib, yonish zonasidagi harorat 850-900 °C gacha yetishi mumkin. Mexanik chala yonishning past darajasi uglerod qoldig'ining intensiv yuqori haroratli konversiyasi hisobiga ta'minlanadi.

Matematik modelni ishlab chiqishda ko‘mir qatlamining harakati gaz generatori silindrik qismining ichida ko‘rib chiqiladi.

Quyidagi farazlar qabul qilingan:

- Issiqlik o‘tkazuvchanligining simmetrik, shar shaklidagi quruq yakka ko‘mir zarrasining bir o‘lchovli modeli ko‘rib chiqiladi;
- Issiqlik radiatsiya va konveksiya bilan bir vaqtda o‘tkaziladi;
- Issiqlik-fizik xarakteristikalari shartli o‘zgarmas;
- Ko‘mir zarrasi termik jihatdan massiv hisoblanadi.

Harakat tenglamalarida og‘irlik kuchining gaz va ko‘mir zarralari oqimiga ta‘siri hisobga olinmaydi. Ko‘mir zarrasining harakati, yonishi va issiqlik almashinuvini tavsiflashda quyidagilar nazarda tutiladi:

zarraning fazodagi holati vaqtning har bir momentida uchta koordinata (z , r , θ) bilan belgilanadi;

ko‘mir zarralari o‘zgaruvchan diametri $\delta = \delta(t)$ bo‘lgan sferik shaklga ega; yonish reaksiyasi uglerod oksid (CO_2) hosil bo‘lishi bilan boradi; gazogeneratoridagi havoning kimyoviy tarkibi o‘zgarmay qoladi.

Ko‘mir zarrasining harakati moddiy nuqta dinamikasi tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$\frac{d\bar{r}}{dt} = \bar{V}_y \quad (11)$$

$$\frac{d\bar{V}_y}{dt} = c_f \frac{s_y \cdot \rho_{gaz}}{W_y \cdot \rho_y} \frac{|\bar{V}_{gaz} - \bar{V}_y|}{2} (\bar{V}_{gaz} - \bar{V}_y) \quad (12)$$

boshlang‘ich shartlar bilan:

$$\bar{r}|_{t=0} = \bar{r}_0 \quad (13)$$

$$\bar{V}_y|_{t=0} = \bar{V}_{y0} \quad (14)$$

bu yerda, \bar{r} – ko‘mir zarrasining radiusi, [m], W_y – ko‘mir zarrasining hajmi, [m³], \bar{V}_y – ko‘mir zarrasining tezligi vektori, [m/s], \bar{V}_{gaz} – gaz - gazning tezligi vektori, [m/s], c_y – ko‘mir zarrasining aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti, δ – ko‘mir zarrasining diametri, [m], s_y – medel kesimining yuzasi, [m²], ρ_y – ko‘mir zarrasi zichligi, [kg/m³], ρ_{gaz} – gaz zichligi, [kg/m³].

$\bar{\omega} = \bar{V}_{gaz} - \bar{V}_y$, deb belgilaymiz u holda (2) ko‘mir zarrachalarining silindrik koordinatalardagi harakat qonunini yozishdan so‘ng quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{cases} \frac{d^2 z}{dt^2} = -\frac{3}{4} c_f \frac{\rho_{gaz}}{\rho_y \delta(t)} |\bar{\omega}| W_z \\ \frac{d^2 r}{dt^2} = -\frac{3}{4} c_y \frac{\rho_{gaz}}{\rho_y \delta(t)} |\bar{\omega}| W_r + r \cdot \left(\frac{d\varphi}{dt}\right)^2 \\ \frac{d^2 \varphi}{dt^2} r = -\frac{3}{4} c_y \frac{\rho_{gaz}}{\rho_y \delta(t)} |\bar{\omega}| W_\varphi - 2 \cdot \frac{d\varphi}{dt} \cdot \frac{dr}{dt} \end{cases} \quad (15)$$

(15) tenglamalar sistemasida) $z=z(t)$, $r=r(t)$, $\varphi=\varphi(t)$ t vaqt momentida harakatlanayotgan ko‘mir zarralarining koordinatalari, $\bar{\omega}$ - nisbiy tezlik vektori.

$$\begin{cases} W_z = \frac{dz}{dt} - V_z \\ W_r = \frac{dr}{dt} - V_r \\ W_\varphi = 2 \cdot \frac{d\varphi}{dt} - V_\varphi \\ |W| = \sqrt{w_z^2 + w_r^2 + w_\varphi^2} \end{cases} \quad (16)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\beta = \frac{3 \rho_{gaz}}{4 \rho_y \delta};$$

$$y_1 = z(t); \quad y_2 = \frac{dz}{dt}$$

$$y_3 = r(t); \quad y_4 = \frac{dr}{dt}$$

$$y_5 = \varphi(t); \quad y_6 = \frac{d\varphi}{dt}$$

U holda (15) tenglamalar sistemasini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\begin{cases} \frac{dy_1}{dt} = y_2 \\ y_2 = -\beta c_y |W| (y_2 - V_z) \\ \frac{dy_3}{dt} = y_4 \\ y_4 = -\beta c_y |W| (y_4 - V_r) - y_3 \cdot y_6^2 \\ \frac{dy_5}{dt} = y_6 \\ y_6 = -[\beta c_y |W| (y_3 y_6 - V_\varphi) + 2y_4 y_6] / y_3 \end{cases} \quad (17)$$

Oltita birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasi uchun quyidagi boshlang‘ich shartlar berilishi kerak:

$$\begin{aligned} y_1(0) &= 0; & z(0) &= 0; \\ y_2(0) &= y_{20}; \\ y_3(0) &= y_{30}; \\ y_4(0) &= y_{40}; \\ y_5(0) &= 0; & \varphi(0) &= 0; \\ y_6(0) &= y_{60}. \end{aligned}$$

$\varphi(0) = 0$ shart shuni anglatadiki, ko‘mir zarrasi harakati zarrani gazogeneratorga burchak bo‘yicha yuklash joyiga bog‘liq emas. Shartlar $y_2(0) = y_{20}$, $y_4(0) = y_{40}$, $y_6(0) = y_{60}$ ni o‘zgartirish mumkin, chunki ko‘mir zarralarining boshlang‘ich tezliklari bir-biridan farq qiladi.

(17) tenglamada ko‘mir zarrasining diametri hisobga olinadi. Gazifikatsiya hisobiga ko‘mir zarrasi diametrining o‘zgarishi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{d\delta}{dt} = 2 \frac{K_s^C}{\rho_y} \quad (18)$$

boshlang‘ich shartlarda:

$$\delta|_{t=0} = \delta_0 \quad (19)$$

$$K_s^c = \beta \cdot O_2 \cdot \alpha \cdot \rho_{\text{газ}}, \quad \alpha = \frac{\alpha_k \cdot \alpha_d}{\alpha_k + \alpha_d} \quad (20)$$

$$\alpha_k = k_0 \exp(-E/RT), \quad \alpha_d = Nu_d \frac{D}{\alpha_k} k_t \quad (21)$$

bunda, Nu_d – Nusselt diffuziya soni; D – kislorodning gazdagi diffuziya koeffitsiyenti, [m/s]; K_s^c – uglerodning yonish tezligi, [kg/m²·s]; $\beta=0,35$ – stexiometrik reaksiya koeffitsiyenti; O_2 – gazdagi kislorod konsentratsiyasi; $\alpha, \alpha_k, \alpha_d$ – mos ravishda reaksiya va diffuzion issiqlik almashinuvining reaksiya tezligi koeffitsiyentlari, [J/mol]; k_0 – preeksponensial ko‘paytuvchi, [m/s²]; E – aktivlanish energiyasi, [J/mol]; $R=8,314$ – universal gaz doimiysi, [J/mol·K]; T – ko‘mir zarrasining harorati, [K].

(18) ga (19), (20) ifodalarni qo‘yib va soddalashtirib, quyidagi differensial tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\frac{d\delta}{dt} = -\frac{K_s}{A_k \delta + A_d} \quad (22)$$

bunda, $A_d = Nu_{\text{газ}} D k_t$,

$$A_k = k_0 \exp(-E/RT),$$

$$K_s = \frac{2\beta O_2 \rho_g}{\rho_p} \cdot \alpha, \quad \alpha = A_k \cdot A_d.$$

(15) yechim quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\delta^2 + A_{d_k} \delta - (\delta_0^2 + A_{d_k} \delta_0 - K_{s_d}) = 0 \quad (23)$$

bunda, $A_{d_k} = \frac{2A_d}{A_k}$,

$$K_{s_d} = \frac{2K_s}{A_k}.$$


(16) kvadrat tenglamaning yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\delta = -(A_{d_k} + \sqrt{d_a - K_{s_d} \cdot t})/2 = 0 \quad (24)$$

$$d_a = A_{d_k}^2 + 4(\delta_0^2 + A_{d_k} \delta_0)$$

gazifikatsiya to‘liq vaqti:

$$t = \frac{d_a - A_{d_k}^2}{K_{s_d}} \quad (25)$$




2-rasm. Silindrik koordinata tizimida ko‘mir zarrasining qatlam bo‘ylab Z o‘qi bo‘yicha harakati

yaratishda juda muhim hisoblanadi (2-rasm).

Berilgan yonilg‘i sarfining gazifikatsiya jarayonining statsionar holatini hisoblash algoritmi quyidagicha qurilgan (3-rasm). Buning uchun Runge-Kutta usuli bilan reaktorda statsionar issiqlik almashinuvining noxiziqli differensial

tenglamalar sistemasi yechiladi, bunda issiqlik manbalarining quvvati o'zgaras hisoblanadi.




3-рasm. Ko‘mir qatlami haroratining ko‘mir zarrasi diametri (massasi) o‘zgarishini hisoblash algoritmining blok-sxemasi

Dissertatsiyaning “**Kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘miri uchun qatlamli gazogeneratorning ishlash rejimlarini tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida tajriba qurilmasining tavsifi, tajribalarni o‘tkazish metodikasi va tajribalardan olingan natijalar keltirilgan.

Shuningdek, sarfi 100 kg/soat kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini gazifikatsiyalash qurilmasining texnik-iqtisodiy asoslari keltirilgan. Shaxta turidagi gazogeneratorda ko‘mirni gazifikatsiyalash jarayonini tadqiq qilish uchun tajriba qurilmasi ishlab chiqildi va yaratildi (4-rasm). Olingan generator gazining sifat ko‘rsatkichlari “Yerostigaz” AJ yer osti gazifikatsiyalash gazi bilan taqqoslangan.


Eksperimental qurilmaning asosiy elementi mos ravishda diametri 147/159 mm bo‘lgan metall silindrik quvurdan iborat. Silindrik izolyatsiyalangan po‘lat quvur 1 ichiga ko‘mir yuklash bunker 12 orqali ko‘mir yuklanadi. Oldindan tayyorlangan qizigan ko‘mirni yuklash yordamida ko‘mir yondiriladi. Havo berish mos ravishda qulflash-rostlash jo‘mrangi 3 va sarf o‘lchagich 4 bilan rostlanadi. Gazlashtiruvchi agentning bosimi va temperaturasi manometr 5 va termometr 6 bilan aniqlanadi. Yonish zonasida havoning bir tekis taqsimlanishi kolosnikli panjara 8 hisobiga ta‘minlanadi. Termoparalar 9 bilan mos ravishda yonish, gazlanish, piroliz va quritish zonasi harorati o‘lchanadi. Haroratning t_1 , t_2 , t_3 va t_4 qiymatlari potensiometr 10 da aks ettiriladi. Siklon 13 yordamida generator gazi mexanik aralashmalardan tozalanadi, namlik ajratkichda esa suv bug‘lari ajratib olinadi. Generator gazining tarkibi (H_2 , CO , CO_2 , N_2 , H_2O) gaz analizatori 15 bilan aniqlanadi. Ko‘mir kuli kulni chiqarib tashlash uchun mo‘ljallangan kuldonda tozalanadi 7.



4-rasm. Eksperimental laboratoriya stendining prinsipial sxemasi: 1, 2-havo berish, 3-to'sib-rostlash jo'mragi, 4-sarf o'lchagich, 5-manometr, 6-termometr, 7-kuldon, 8-kolosnikli panjara (gazlashtiruvchi agent taqsimlagichi), 9-termopara, 10-potensiometr, 11-gazogenerator shaxtasi, 12-ko'mirni yuklash, 13-siklon, 14-namlikni ajratgich, 15-gaz analizator.

rasmlarda keltirilgan. 5÷7 - rasmlarda sonli va eksperimental tadqiqotlarning natijalari taqqoslangan bo'lib, o'zaro natijalarning eng kata xatoligi 4,8 % ni tashkil etdi. 8 - rasmdan ko'rinib turibdiki, generator gazining eng yuqori yonish issiqligi $\alpha = 0,5-0,7$ oralig'ida kuzatiladi. O'tkazilgan bir qator tajribalar tahlili shuni ko'rsatdiki, issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarini jadallashtiruvchi parametrlarning samarali qiymatlari quyidagi oraliqlarda o'zgaradi:

- ko'mirning ishchi namligi: $W^p = 24 \div 28 \%$;
- ko'mirning ishchi kulligi: $A^p = 28 \div 32 \%$;
- ko'mir zarralarining diametri: $d = 10 \div 20 \text{ mm}$.




5-rasm. Gazifikatsiya jarayonida ko'mir zarrachasining massasi o'zgarishi
a) $d=10 \text{ mm}$, b) $d=20 \text{ mm}$, v) $d=30 \text{ mm}$

Laboratoriya qurilmasining faol zonalari haroratining barcha qiymatlari $0,1 \text{ }^\circ\text{C}$ aniqlik bilan K tipidagi termoparalar bilan o'lchandi. Generator gazidagi yonuvchi komponentlarning massa ulushi, kislorod va namlik miqdori "Xromatek-Kristall 9000" gaz xromatografida aniqlandi.


Tajribalarda parametrlar quyidagi oraliqlarda o'zgardi: $G_{ko'mir} = 4 \div 8 \text{ kg/soat}$, $G_{havo} = 4 \div 5 \text{ nm}^3/\text{soat}$, $p = 100 \text{ kPa}$, faol zonalarda harorat $t_1 = 150 \div 300 \text{ }^\circ\text{C}$, $t_2 = 300 \div 500 \text{ }^\circ\text{C}$, $t_3 = 500 \div 800 \text{ }^\circ\text{C}$, $t_4 = 800 \div 850 \text{ }^\circ\text{C}$.

Tajribalarda qo'llanilgan ishchi namlik, ishchi kul miqdori, zarrachalar diametri kabi turli boshlang'ich ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ko'mir namunalari uchun chegaraviy shartlar o'rnatildi. Kullik darajasi yuqori bo'lgan Angren qo'ng'ir ko'mirining shlak hosil bo'lish harorati $t_{shl} = 850 \div 950 \text{ }^\circ\text{C}$ ekanligi tasdiqlandi.


Eksperimental va sonli tadqiqotlarning ayrim umumlashtirilgan natijalari 5÷9 -




6-rasm. Gazifikatsiya jarayonida ko‘mir qatlami haroratining o‘zgarishi
a) d=10 mm, b) d=20 mm, v) d=30 mm



7-rasm. Tajriba qurilmasining balandligi bo‘yicha CO, CH₄, H₂, CO₂ gazlarining konsentratsiya o‘zgarishi



8-rasm. Generator gazining yonish issiqligining havoning ortiqchalik koeffitsiyentiga bog‘liqligi



9-rasm. Generator gazining maksimal yonish issiqligining ko‘mir ishchi namligiga bog‘liqligi

8-rasmda keltirilgan grafik asosida eng kichik kvadratlar usuli yordamida havoning ortiqchalik koeffitsiyentining turli qiymatlarida generator gazining yonish issiqligining o‘zgarishining empirik tenglamasi olingan.


$$Q_H^{\text{gaz}} = 25476 x^6 - 14752 x^5 + 337454 x^4 - 384392 x^3 + 223869 x^2 - 60191 x + 6143,5 \quad (26)$$

Yuqorida keltirilgan usul bo‘yicha ko‘mirning turli ishchi namligida generator gazining yonish issiqligini o‘zgarishining empirik tenglamasi olindi (9-rasm):

$$Q_H^{\text{gaz}} = -0,00023x^2 + 0,0087 - 0,0043 \quad (27)$$

(26) va (27) tenglamalarning o‘rtacha nisbiy xatoligi 3,7 % ni tashkil etadi. Empirik tenglamalar va tegishli eksperimental ma’lumotlar bo‘yicha hisoblash natijalarining adekvatligi Fisher mezonini bo‘yicha baholandi. (26) tenglama uchun hisoblangan $F_p = 5,412$, jadvali $F_T = 7,54$, (27) tenglama uchun hisoblangan $F_p = 5,424$ jadvali $F_T = 7,55$, ya’ni $F_p < F_T$ bo‘lganda ishonchlilik ehtimoli 92% aniqlik bilan adekvat bo‘ladi.

Koks qoldig‘ining to‘liq yonishini tashkil etishda yonish zonasida havoning bir tekis taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. COMSOL Multiphysics dasturi yordamida havo oqimining bir tekis taqsimlanishiga kolosnikli panjara shakllarining ta’siri o‘rganildi. Buning uchun kolosnikli panjaralarning to‘g‘ri, botiq va qavariq shakllari tanlandi (10-rasm).



10 -rasm. COMSOL Multiphysics da kolosnikli panjaralarning 3D ko‘rinishi. a) botiq; b) qavariq; v) ko‘ndalang kesim

Matematik model va tajriba natijalari Fisher mezonini bo‘yicha adekvatlikka tekshirildi, o‘rtacha nisbiy xatolik 3,1% - 4,8% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “**Ko‘mirni qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasini joriy etishning texnik-iqtisodiy asosi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida gazifikatsiya qurilmasini joriy etishda TII-230-2 turidagi qozon qurilmasining issiqlik, texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo‘yicha texnologik siklning tavsifi va hisoblash natijalari keltirilgan.

1-jadvalda olingan generator gazi va “Yerostigaz” AJ ko‘mirini yer osti gazifikatsiyalash gazining sifat ko‘rsatkichlarini taqqoslash natijalari keltirilgan.


11-rasmda takomillashtirilgan gazogenerator qurilmasini asosiy texnologik ko‘rsatkichlarini o‘zgartirmagan holda amaldagi qozonxona uskunasi ga ulashning taklif etilgan sxemasi keltirilgan.

1-jadval.

Generator gazlarining sifat ko‘rsatkichlarini taqqoslash

Генераторный газ	CO, %	CO ₂ , %	CH ₄ , %	H ₂ , %	O ₂ , %	N ₂ , %	Gazning solishtirma chiqishi, nm ³ /kg	Generator gazining yonish issiqligi, Q _H ^p , kkal/nm ³
“Yerostigaz” AJ	7	23	6	20	1	50	2,2	800
Eksperimental qurilma	26	7	3	16	0,5	47	2,2 - 2,4	950 - 1000

“Angren IES” AJda ko‘mir sarfi 100 kg/soat bo‘lgan gazogenerator qurilmasini joriy etishdan kutilayotgan texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan.



11-rasm. Angren IESda qozonxona uskunalarining prinsipial ishlash sxemasi

2-jadval.

Gazifikatsiyalash qurilmasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	TII 230-2 turidagi qozon qurilmasi	Taklif etilayotgan qurilma
Atmosfera tashlamalari miqdori, t/yil		
Uchuvchan kul	23,63	6,03
CO	23,07	8,61
NO ₂	10,1	9,14
SO ₂	0,89	0,63
Kapital qo‘yilmalar, so‘m	-	310 000 000
Yillik foydalanish xarajatlari, so‘m	570 707 520	452 000 000
Yillik issiqlik energiyasi ishlab chiqarish, Gkal/yil	1,905	1,555
Issiqlik energiyasining tannarxi, so‘m/Gkal	237 218	218 309
Iqtisodiy samara, so‘m/yil	-	151 272 000
Qoplanish muddati, yil	-	3
“Yerostigaz” AJ		
Gazning yonish issiqligi, kkal/nm ³	800	1000
Generator gazining chiqishi, nm ³ /kg	2,2	2,4
QQSni hisobga olgan holda gazning tannarxi, so‘m/nm ³	130	100

Yuqorida keltirilgan jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, ishlab chiqilgan takomillashtirilgan qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasi yordamida hosil bo‘lgan gazning yonish issiqligi “Yerostigaz” AJ tomonidan beriladigan gazning yonish issiqligiga nisbatan 20 % gacha yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ishlab chiqilgan qurilmada 1 kg ko‘mirdan hosil bo‘ladigan generator gazi miqdori ham “Yerostigaz” AJga qaraganda 20 % gacha ko‘proq.

XULOSA

“Kullik darajasi yuqori bo‘lgan Angren qo‘ng‘ir ko‘miri uchun gazifikatsiyalash qurilmasini ishlab chiqish va tadqiq etish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Kullik darajasi yuqori bo‘lgan Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, past navli qattiq yoqilg‘ilarni gazifikatsiyalash usullarini tahlil qilish asosida kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini qatlamli gazifikatsiyalash qurilmasi ishlab chiqildi. Natijada, kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘miridan generator gazini olish imkoniyati yaratilgan.

2. Issiqlik-kimyoviy jarayonlarning fizik va matematik modellari hamda hisoblash algoritmi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan modellar Runge-Kutta usuli bilan yechildi. Ishlab chiqilgan model gazifikatsiyalash jarayonini o‘rganish va jarayonni samarali olib borishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, model yordamida ko‘mirni qatlamli gazifikatsiyalash jarayonini amalga oshirishda olinadigan generator gazining komponentlarini aniqlash mumkin.

3. Yaratilgan laboratoriya qurilmasi - qatlamli turdagi gaz generatorida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Natijada, gazifikatsiyalash jarayoni samaradorligining ko‘mirning havo ortiqchalik koeffitsiyenti (α) ga, ishchi namligi (W^p) ga va kul miqdori (A^p) ga bog‘liqligini aniqlovchi empirik tenglamalar olindi. Nazariy hisoblar va tajriba ma’lumotlari qiymatlarining adekvatligi Fisher mezoni yordamida tekshirildi va $7,5 > 5,4$ ni tashkil etdi, bu esa tadqiqotning adekvatligini tasdiqlaydi.

4. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining ishchi namligi va kulligining keng diapazoni uchun o‘tkazildi. O‘tkazilgan tajribalar natijasida ishchi namlikning ratsional qiymatlari $W^p = 20-24\%$ va ishchi kulning ratsional qiymatlari $A^p = 24-28\%$ ekanligi aniqlandi.

5. Angren IESning amaldagi TII-230-2 turidagi qozon qurilmasiga ko‘mir sarfi 100 kg/soat bo‘lgan gazogenerator uskunasi asosiy texnologik ko‘rsatkichlarni o‘zgartirmagan holda ulashning texnologik sxemasi ishlab chiqildi. Kullik darajasi yuqori bo‘lgan polidispers Angren qo‘ng‘ir ko‘miridan olingan generator gazini qo‘llash natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar miqdorini yiliga 33 tonnaga kamaytirish, issiqlik energiyasi tannarxini 8 foizga pasaytirish imkoniyati ko‘rsatildi. Buning natijasida yillik iqtisodiy samara 151 272 000 so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА НАУК DSc 03/10.12.2019.Т.03.03 ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

КАВКАТБЕКОВ МУРОДЖОН МАМИТБЕКОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ИССЛЕДОВАНИЕ УСТАНОВКИ ГАЗИФИКАЦИИ
ДЛЯ ВЫСОКОЗОЛЬНОГО АНГРЕНСКОГО БУРОГО УГЛЯ**

05.05.04 – Промышленная теплоэнергетика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.3.PhD/T3160.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.tdtu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Бабаходжаев Рахимжан Пачеханович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Узаков Гулом Норбоевич
доктор технических наук, профессор

Шаисламов Алишер Шабдурахманович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

АО «Теплоэлектропроект»

Защита диссертации состоится « 5 » 04 2025 г. в 10:30 часов на заседании Научного совета DSc. 03/10.12.2019.T.03.03 при Ташкентском государственном техническом университете. (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (регистрационный номер - 12). (Адрес: 100095, Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 246-03-41).

Автореферат диссертации разослан « 12 » 03 2025 года.
(протокол рассылки № « 4 » от « 11 » 03 2025 года).



К.Р. Аллаев

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор, академик

И.У. Рахмонов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

А.М. Мирзабаев

Заместитель председателя научного семинара
при научном совете по присуждению ученой степени,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется вопросам разработки технологий газификации твердого топлива в связи с сокращением традиционных источников энергии, таких как природный газ и нефть. Освоенные мировые запасы угля могут хватить на 200-250 лет³. В настоящее время в развитых странах почти 40 % мировой электроэнергии производится на электростанциях, работающих на угольном топливе. В связи с этим особое внимание уделяется повышению эффективности экологически чистой переработки угля на основе газификации угля по сравнению с традиционными методами сжигания твердого топлива.

В мире проводятся научные исследования, направленные на разработку экологически безвредных источников топлива для обеспечения тепловой и электрической энергией предприятий горнодобывающей, черной и цветной металлургии, химической промышленности с непрерывным циклом производства и высокой энергоемкостью. В этом направлении приоритетными считаются исследования по использованию газов, образующихся при газификации твердого топлива на тепловых электростанциях, а также по снижению загрязнения окружающей среды. Вместе с тем, одной из актуальных задач считается разработка научно обоснованных программных продуктов, позволяющих определить время газификации угля, конструктивные размеры газифицирующей установки, температуру процесса газификации и химический состав образующегося газа на основе анализа и оценки физико-химических свойств топлива при газификации твердых топлив, а также выявления факторов, влияющих на процесс газификации.

В Республике с целью снижения энергоемкости отраслей экономики в полтора раза к 2030 году осуществляются широкомасштабные мероприятия по усовершенствованию существующих, созданию и внедрению новых технологических решений. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы указаны задачи, в том числе «... по бесперебойному обеспечению экономики электрической энергией, а также по активному внедрению технологий «Зеленой экономики» во все отрасли, повышение энергетической эффективности экономики на 20% и снижение выбросов вредных газов в атмосферу на 20%»⁴. При осуществлении этих задач, в частности при разработке и внедрении комплекса мер по рациональному использованию энергетических ресурсов в направлении снижения энергоемкости производства электрической энергии и тепла на промышленных предприятиях, моделировании методов повышения качества топливных ресурсов, является важным проведение научных исследований, основанных на анализе классических и современных методов, направленных на снижение расхода условного топлива при производстве электрической и тепловой энергии.

³ А. И. Гайворонский, В. А. Марков, Ю. В. Илатовский. - М.: ИРЦ Газпром, 2007. - 478 с.

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”.

